

УДК. 63.5995.+633

**O‘ZBEKISTON JANUBIDA PATISSON (*CUCURBITA PEPO*.
VAR.MELOPEPO) O‘SIMLIGINI SELEKSIYASI UCHUN BOSHLANG‘ICH
MANBA YARATISH**



Kenjayeva To'lg'onoy Rahmonovna

Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti

3-bosqich tayanch doktoranti

Telefon raqami: +99-899-572-91-33

Kenjayeva67@mail.ru

Ilmiy rahbar: N.J.Nurmatov

Termiz davlat pedagogika instituti, Biologiya kafedrası mudiri

Annotatsiya. Patisson muhim sabzavot va poliz ekinlari qatoriga kiradi, ularning mevalari va urug‘lari yuqori parhezlik, davolash va profilaktika uchun yuqori qiymatiga ega, konserva sanoati, pazandachilik uchun xom ashyo bo‘lib xizmat qiladi, uzoq muddat saqlash mumkin, aholining vitaminlarga bo‘lgan ehtiyojini uzoq vaqt davomida qondirish mumkin. Ular tarkibida natriy, temir, kobalt, molibden, titan, alyuminiy, litiy, sink va boshqa mikroelementlar mavjud. Shuningdek, vitaminlar mavjud: B guruhidan bu tiamin (0,06 mg%) va riboflavin (0,1 mg%), mevalarda karotin (0,2 mg%) va askorbin kislotasi (40 mg%).

Абстрактный. Патиссон — одна из важных овощных и бахчевых культур, его плоды и семена обладают высокой пищевой, лечебной и профилактической ценностью, служат сырьем для консервной промышленности, кулинарии, могут длительно храниться, удовлетворяют потребность населения в витаминах. может быть удовлетворен в течение длительного времени. Они содержат натрий, железо, кобальт, молибден, титан, алюминий, литий, цинк и другие микроэлементы. Есть и витамины: из группы В это тиамин (0,06 мг%) и рибофлавин (0,1 мг%), а в плодах — каротин (0,2 мг%) и аскорбиновая кислота (40 мг%).

Abstract. Patisson is one of the important vegetable and melon crops, the fruits and seeds of which have high dietary, therapeutic and prophylactic value, serve as raw materials for the canning industry, cooking, can be stored for a long time, and can satisfy the population's need for vitamins for a long time. They contain sodium, iron, cobalt, molybdenum, titanium, aluminum, lithium, zinc and other microelements.

There are also vitamins: from group B, these are thiamine (0.06 mg%) and riboflavin (0.1 mg%), in fruits - carotene (0.2 mg%) and ascorbic acid (40 mg%).

Kalit soʻzlar. Hosildorlik. Mahsuldorlik. Qimmatli xoʻjalik belgilar. Erta pishar. Ertangi hosildorlik. Biologik hosildorlik.

Ключевые слова. Урожай. Производительность. Ценные экономические качества. Раннее созревание. Ранний урожай. Биологическая урожайность.

Keywords. Yield. Productivity. Valuable economic traits. Early maturity. Tomorrow's yield. Biological yield.

KIRISH.

Mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo aholisining tez surʻatda oʻsishi, oziq-ovqat mahsulotlariga boʻlgan ehtiyojning ortishiga sabab boʻlmoqda va bu oʻz navbatida olinayotgan mahsulotlarning miqdori hamda sifatini oshirishni talab qiladi. Oxirgi yillarda sabzavot va poliz mahsulotlaridan foydalanish inson salomatligiga ijobiy taʼsir etmoqda. Sabzavot yetishtirishning zamonaviy texnologiyalarini ishlab chiqish dolzarb masalaga aylanib qoldi. **Shu sababli oilalarning moddiy faravonligini, turmush tarzini va sogʻlom ovqatlanishini yaxshilash, ularning boʻsh vaqtini foydali mehnat bilan band boʻlishini taʼminlash bilan bir qatorda bozorlarimizni turli xildagi sabzavot mahsulotlari bilan toʻldirishning muhim manbai hisoblanadi.**

Maʼlumki, har bir davlatning barqarorligi avvalo, koʻp jihatdan shu mamlakatning dehqonchiligiga ziroatchiligiga, oziq-ovqat mahsulotlari bilan nechogʻlik taʼminlanganlik darajasiga bogʻliqdir. Mustaqil Vatanimizda yildan-yilga sabzavot ekinlarining maydoni rejali ravishda kengayib borishi tufayli sabzavot mahsulotlari tobora koʻproq yetishtirilmoqda. Shaxsiy tomorqalar, dala chetlari, bogʻ va tokzorlar orasida ham sabzavotlarni koʻplab yetishtirish odat tusiga kirib borayotir. Bugungi kunda yer yuzi aholisi 7 milliarddan oshib, ayrim mamlakatlar bozorlarida oziq-ovqat mahsulotlarining tanqisligi xavf solayotgan bir paytda, shaxsan Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev respublika hukumatining tarmoqni yanada rivojlantirishga oid koʻrsatmalari, sabzavot-poliz va kartoshka ekinlari mahsulotini tobora koʻpaytirish va eksport qilish masalasini asosiy vazifa qilib qoʻymoqda.

Ushbu dissertatsiyaning ilmiy-tadqiqot ishlari 2019-yil 23-oktabr PQ-5853-son qarori bilan tasdiqlangan “Oʻzbekiston Respublikasini 2020-2030 yillarda rivojlantirishning harakatlar strategiyasi”da aholini oziq-ovqat xavfsizligini va toʻgʻri ovqatlanish madaniyatini taʼminlash asosiy vazifalardan biri qilib

belgilangan.¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 dekabrda PQ-4549 sonli «Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish, sohada qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida» gi qarorida ham bu dolzarb vazifa ilgari surilgan. Ushbu vazifalarni bajarishda iste‘molchilarning talabiga binoan ekologik toza mahsulot yetishtirish va ularni mavsumdan tashqari paytlarda mahsulot bilan ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Bugungi kunda yer va suv resurslari chegaralanganligi, iqlim o‘zgarishi, urbanizatsiya, tabiiy talofatlar, aholi sonining oshib borishi butun dunyoda oziq-ovqat xavfsizligi masalasini birinchi darajadagi muammoga aylantirdi. Oziq-ovqat xavfsizligini oldini olish, aholini oziq-ovqat bilan ta‘minlash, aholi ehtiyoji uchun kerak bo‘ladigan sabzavotlarni assortimentini kengaytirish maqsadida patisson ekini o‘rganildi. Sabzavotlar alohida ahamiyatga ega bo‘lgan eng qimmatli oziq-ovqat mahsulotidir.

TADQIQOT NATIJALARINING ILMIIY YANGILIGI.

- Qovoqdosh ekin patissonning kolleksiya navlarini o‘rganish natijasida asosiy iqtisodiy qimmatli xususiyatlarning manbalari aniqlandi;
- o‘z-o‘zini changlatish asosida Fi gibril liniyalarni yaratildi va qimmatli xo‘jalik belgilari o‘rganildi.
- F1-gibril avloddagi xususiyatlari ya‘ni yuqori mahsuldor, ertapishar, kasallikka chidamli istiqbolli navlar aniqlandi.



ADABIYOTLAR TAHLILI.

Patisson qovoqdoshlar (*Cucurbita Pepo*) oilasiga mansub bir yillik o‘t o‘simlik. Ular o‘q ildizli bo‘lib, asosiy va yon tartib ildizlardan tashkil topgan A.I.Filov [75; 263-b.]. Patissonning o‘q ildizi 20-30 sm chuqurlikkacha kirib borishi mumkin, lekin asosiy

¹ 2019-yil 23-oktabr PQ-5853-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasini 2020-2030 yillarda rivojlantirishning harakatlar strategiyasi”da aholini oziq-ovqat xavfsizligini va to‘g‘ri ovqatlanish madaniyatini ta‘minlash asosiy vazifalardan biri qilib belgilangan.

yon ildizlar tuproqning 10-15 sm haydalma qatlamida tarqalib o'sadi N.N. Balashev [4; 66-77-b.]. Tuproqning 10-15 sm chuqurligida asosiy ildizdan ikkinchi va uchinchi tartib yon ildizlar chiqadi. Patisson kechpishar navlarida erta va o'rtapishar navlarga nisbatan ildiz sistemasi kuchli rivojlangan bo'ladi [21; 370-b.]. Olingan ko'pchilik ma'lumotlarga ko'ra, asosiy ildizlarning umumiy uzunligi bir tup patisson -30 sm gacha etadi [22; 194-b.].

Patisson ekinida dastlabki o'suv davrida ildizlari er ustki qismlariga nisbatan kuchli rivojlanadi. Shuning uchun, ular ko'chirib yoki ko'chatidan ko'paytirilmaydi [4; 66-77-b.]. Ildizlarining o'sishi, rivojlanishi va tarqalishi tuproq tipiga, mexanik tarkibiga va sizot suvlarining joylashish chuqurligiga bog'liq bo'ladi. Taniqli olim K.I.Pangalo [58; 298-b.] o'zining "Poliz ekinlarining kelib chiqishi va taraqqiyot yo'li" asarida poliz ekinlarini eng dastlabki avlodlari liana (chirmashib) o'suvchi ko'p yillik o'simliklar bo'lgani haqida yozadi. Hozirgi vaqtda poliz ekinlari orasida patissonga o'xshagan butasimon va o'tchil shaklda o'suvchilari ham bor. Lekin, ko'pchilik madaniy turlari asosan o'tchil holda o'sadi, yovvoyi holda uchramaydi.

Patissonda asosiy poyaning uzunligi ayrimlarida 50 smdan 1 metrgacha boradi. Patissonda barg bandleari uzun bo'lib, atroflari bo'laklarga bo'lingan, lekin unchalik chuqur kesilmagan, tukchalar bilan qoplangan, yumaloq yoki buyraksimon, yuraksimon shaklda bo'ladi. Gullarining tiplari, joylanish xarakteri, changlanish va urug'lanish usullari navlar aro farq qiladi. Patissonning ko'pchilik navlarida gullari ikki jinsli bo'ladi. Ayrim patisson navlarida alohida ham urg'ochi, ham erkak xilda uchraydi. [75; 263-b.]. Patisson erkak gullari bir nechtasi (5-15 dona) to'p-to'p bo'lib, urg'ochi gullari esa alohida joylashadi.

Patisson navlarida 5 xil gul bo'ladi: Patisson bir tupida 250-500 ta erkak gullar, 150-200 tagacha ikki jinsli gullar hosil bo'ladi. Urg'ochi gullari asosan yon poyalarda, erkak gullar esa asosiy poyada hosil bo'ladi. Patisson unib chiqqandan 20-30 kun o'tgach, gullay boshlaydi. Dastlab erkak gullari, 5-10 kundan so'ng urg'ochi gullari ochiladi. Keyinchalik erkak va urg'ochi gullari bir vaqtda ochilaveradi. Erkak gullari 1 kun, urg'ochi gullari 2-3 kun ochilib turadi. Ular chumoli, trips, asalari va boshqa hashoratlar yordamida changlanadi. Urg'ochi gullarning ko'pi to'kilib ketadi va palakda pishib etiladigan 2-5 ta meva bo'ladi. Patisson mevasi-ko'p urug'li soxta rezavor meva, ya'ni qovoqcha hisoblanadi. Patisson ekini tuproq hamda havo haroratiga talabchandir. Uning urug'i tuproq harorati 14-16 °C da una boshlaydi. Harorat bundan pasayganda urug'lar erda chirib qoladi, siyrak unib chiqadi. Shuning uchun patisson ekinlarini juda erta-tuproq qizimasdan ekish maqsadga muvofiq emas [16; 28-b.].

Urug'ning unib chiqishi uchun qulay harorat 20 °C hisoblanadi. Shunday haroratda urug'lar ekilganidan keyin 5-6 kunda o'simlik ko'rina boshlaydi. Patisson o'simligining o'sishi va rivojlanishi uchun qulay harorat 25-30°C hisoblanib, harorat 12-15°C gacha pasayganda o'simlik gulini to'kib yuboradi. O'zbekiston sharoitida olib borilgan tajribalar shuni ko'rsatdiki, havo harorati juda ko'tarilib ketsa ham poliz ekinlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi [20; 316-b.].

METODOLOGIYA. TADQIQOT USULLARI.

Patisson ekinlarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar SPE va KITI Surxondaryo ilmiy tajriba stanstiyasida olib boriladi. Tajribalar quyidagi uslub va uslubiy ko'rsatmalar asosida olib boriladi:

- методические указания по экологическому испытанию овощных культур в открытом грунте (М., ВНИИССОК, 1987. Част 1);
- методические указания по селекции зелёных, пряно-вкусовых и многолетних овощных культур (М., ВИР-ВНИИССОК, 1987);
- руководство по апробации овощных культур и кормовых корнеплодов (М., «Колос», 1982);
- методика Gosudarstvennogo sortoisпитaniya selskoxozyaystvennix kultur (М., 2019. Chast 1);
- методика polevogo орыта (Dospexov B.A., 1985).

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Patisson o'simligining tik o'sishi va tup hosil qilish xususiyati F 1 duragay navlarda saqlanib qoladi. Variantlarda namunani tik o'suvchi namunalar bilan chatishtirilganda F1 da yopiq shakl olinadi. F1 duragayning shakli oraliq yoki onalik liniyaga yaqinroq bo'ladi. Meva rangi va tipi oraliq formada bo'ladi. Izlanishlar 2023 yildan to 2024 yilgacha Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy tadqiqot instituti Surxondaryo ilmiy-tajriba stansiyasida olib borildi. Tajriba stansiyasi Surxondaryo viloyati Termiz tumani Namuna SIU hududida joylashgan. Tadqiqot materiali bo'lib, patissonning 33 ta nav namunalari xizmat qildi. Urug'larni ochiq maydonga ekish ishlari aprel oyining 2-chi o'n kunligida amalga oshirildi. Har bir nav namunalaridan 10 donadan ko'chat 70x70 sxemada ekildi. Tajriba delyankalari orasi 5 m². Tajribalar 2022 yilda qaytariqsiz, 2023 yil va 2024 yilda 3 qaytariqli tartibda o'tkazildi. Nazorat varianti sifatida oq rangli patissonlar uchun Oq- 13, Sariq rangli patissonlar uchun Karapuz, Yashil rangli patissonlar uchun Arbuzinka navi olindi.

Sun'iy changlantirish ishlari may oyining 2-3-o'n kunligida olib borildi. Changlatilgan erkak va urg'ochi gullar havo o'tkazadigan to'r xaltachalar bilan izolyatsiya qilindi.

Changlantirish ertalab soat 8 dan to 12 gacha bo'lgan oraliqda olib borildi. Urug'larni yig'ib olish ishlari iyun oyining 3 o'n kunligi va iyul oyining 1 o'n kunligida amalga oshirildi. Hosilni yig'ish va o'lchov ishlari haftada 2 marta olib borildi. Patisson mevalari texnik pishganda terildi. Patisson vegetatsiya davrida fenologik kuzatuvlar olib borildi. Ekish muddatlari belgilandi, unib chiqish foizlari (10 % va 75 %), erkak va urg'ochi gullari ochilishi, mevaga kirishi, mevalarni terish muddatlari belgilandi (Методическая указания, 1988).

XULOSA VA TAKLIFLAR.

O'rganilayotgan navlar orasida oq (Sambrero, Disk, Sun), sariq (Solnishko, Karapuz, Delikates), yashil rangli (Marsianin, Arbuzinka, Naf-naf) mevalar kuzatildi. F1 gibridda iqtisodiy qimmatli belgilarning namoyon bo'lishi kuzatildi. F1 duragaylarini yaratish bo'yicha seleksiya ishlari ota-ona formalarini tanlab olish orqali amalga oshirildi. Iqtisodiy qimmatli xususiyatlarga ko'ra, quyidagi namunalar ajratildi: yuqori mahsuldorlikka asoslangan: Sambrero, Sun, Disk, barglarining yumshoq, mayin tukchali turiga qarab namunalar tanlangan. Oq

13 navi NMRga chidamli. Sol'nyshko, Karapuz, Solnyshko kalchuga namunalari o'rtacha qarshilik balliga ega. Sariq mevali patisson Nif-Nif (0-3), yashil mevali Marsianin (0-3) o'rtacha qarshilikka ega. Arbuzinka va Nuf-nuf namunalari erta yetuklikka qarab tanlangan.

- 1-jadvalda patisson nav namunalarida rivojlanish davrlarining amalga oshish muddatlari haqida ma'lumot keltirilgan.
- 2-jadvalda patisson nav namunalarining rivojlanish fazalari kiritilgan.
- 3-jadvalda chatishtirilgan navlarning afzallik belgilari va olingan natijalar haqida ma'lumot keltirilgan. 1, 2, 3-rasmlarda chatishtirish natijasida olingan natijalar haqida ma'lumot keltirilgan.

-

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo'jalik ekinlari Davlat Reestri. T., 2016, 2017, 2018, 2024 yillar.
2. Арасимович В.В. Биохимия дини - М., 1938. - Т. ИВ. Ашурметов О.А., Буриев Х.Ч. Репродуктивная биология представителей семи Сусурбитасеае Жусс. Тошкент «ФАН» 2002. –С.159.

3. Балашов Н.Н. Бахчеводство – Ташкент Ўқитувчи, 1976. - С. 66-77. Бакчевые культуры - Киев: Аграрная наука., 2000. - 330 с.
4. Belik V.F. Vaxchevodstvo - M.: «Kolos», 1982. -164 s.
5. Belyakova Ye.V. Xranenie din - Astraxan, 1978. - vip. 7. - S. 3-5.
6. Boyko G.N. Vliyanie doz i sposobov vneseniya udobreniya na nakoplenie nitratov -Kiev: Agrarna nauka, 1994. - S. 40-43.
7. Vaxchevodstvo (tikvennie rasteniya) - M.- L.:Selxozgiz, 1929. —S. 406-425.
8. Кириллова О. А. Оптимизация факторов повышающих эффективность гибридного семеноводства цуккыни. 2015 год. Кириллова О. А.
9. **Xoliqova, M., Isoqov, L., Xamdamova, F., Alimuxamedova, N. Dissertatsiya ustida ishlash bo'yicha amaliy qo'llanma [Matn] / Mohira Xoliqova, Luqmonjon Isoqov, Firuza Xamdamova, Nargiza Alimuxamedova. – Toshkent: Akadernashr, 2023. – 256 b.**
10. X. Egamov. Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi, urug'chiligi va aprobatsiyasi. 2019 y.11.10.